




**2021- yil yanvar-aprel
oylarida Navoiy viloyatida
xizmatlar sohasining
rivojlanishi**

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiatи, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 140,4 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **516,2 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,4 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)

**516,2
mlrd. so'mga**

Hajmning o'sishi

**2 140,4
mlrd. so'm**

Xizmatlar hajmi

120,4 %

O'sish sur'ati




2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning aprel oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **52,0** mlrd. so'mga o'sdi va **559,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 157,1 mlrd. so'mga kamaygan va 272,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2021- yilning mart oyiga nisbatan joriy yilning aprel oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **1,6** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mart oyiga nisbatan 2020- yilning aprel oyida xizmatlar hajmi **200,4** mlrd. so'mga kamaygan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	2 140,4	120,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	109,3	137,9
Moliyaviy xizmatlar	471,6	115,8
Transport xizmatlari	378,0	134,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	320,5	129,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	86,9	114,2
Savdo xizmatlari	663,6	112,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	38,4	129,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	78,7	138,2
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	30,6	136,5
Ijara xizmatlari	38,0	142,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	32,1	133,5
Shaxsiy xizmatlar	52,6	149,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	86,4	103,8
Boshqa xizmatlar	77,2	109,3


2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **31,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,4 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari umumiyligi hajmning **32,3 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,2 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-aprel oylarida yuqori o'sish shaxsiy (**49,8 %**), ijara (**42,2 %**), aloqa va axborotlashtirish (**37,9 %**), shuningdek, transport xizmatlarda (**34,4 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining keskin pasayishi me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**3,8 %**) sohasida qayd etildi.


Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **142,5 %**.

Ko'chmas mulk blan bog'liq xizmatlarda biroz o'sish kamayishi kuzatilgan – **22,5 %**.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



—♦— 2020 yil yanvar-aprel

—●— 2021 yil yanvar-aprel

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylaj hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,0 %** ni tashkil etib, bu esa **663,6 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **524,9 mlrd. so'mga** yoki umumiylaj hajmning **32,3 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

524,9

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

663,6

88,7

O'sish sur'ati, % da

112,9

2020- y. yanvar-aprel


2021- y. yanvar-aprel

2021- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtdan uch qismining ko'prog'i, aniqrog'i **82,2 %** ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqli)**



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqli chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosi,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **80,4 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-aprel oylarida)

2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **471,6 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **387,6 mlrd. so'mga** teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi hajmidagi ulushi **31,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **32,3 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **138,7 mlrd. so'mga** ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **15,8 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **142,5 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,8 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **5,1 %** ni tashkil etadi.

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **2,1 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-aprel oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **93,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **4,4 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,8 %**.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar




Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'r-satilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-aprel



2021- y. yanvar-aprel



2021- yil yanvar-aprel oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **69,9 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida yo'lovch tashish xizmatlarining ulushi **62,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar




Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-aprel oylarida)

2021- yilning yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **109,3** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **137,9** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turi hajmi **77,7** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor



xizmatlari umumiyligi hajmining **4,8** % iga teng bo'lgan.
O'sish sur'ati esa **115,4** % ni tashkil etgan.


2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **80,4 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y.
yanvar-aprel**



**2021- y.
yanvar-aprel**



■ **Telekommunikatsiya xizmatlari**

■ **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

■ **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

■ **Noshirlik xizmatlari**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **97,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzliksiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **75,7** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **3,5 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **138,2 %** ni tashkil etdi.

**53,2
mlrd.
so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

**75,7
mlrd.
so'm**

**2020- y.
yanvar-
aprel**



**2021- y.
yanvar-
aprel**

87,3 %

**O'sish sur'atlari,
% da**

138,2 %

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **53,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan esa o'sish **87,3 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

60,5
mlrd. so'm

2020- y.
yanvar-aprel

86,9
mlrd. so'm

2021- y.
yanvar-aprel

Xizmatlar hajmi

81,7 %

114,2 %

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **26,4 mlrd. so'mga** ortdi.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

86,2 %

2021- y. yanvar-aprel

13,8 %

15,3 %

84,7 %



2021- y. yanvar-aprel



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar**



Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'g'ini hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **86,2 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-aprel oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **84,7 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.

yanvar-aprel

2021- y.

**20,6
mlrd. so'm**

**Xizmatlar
hajmi**

**30,6
mlrd. so'm**

96,3 %

**O'sish
sur'ati**

104,5 %

1,2 %

**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

1,4 %



2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2 108,1
ming so'm



Hajmnning o'sishi

482,1
ming so'mga

118,5 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 108,1** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,5 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 626,0** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- may holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari


Ularning umumiyligi

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **65,4 %**, sanoat **15,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,4 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **7,6 %** ga to'g'ri keladi.

**2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **66,1 %** ni, sanoat **15,5 %** ni, qurilish **8,3 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **10,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

2020- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(52,5 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **9,5 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,7 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,5 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 52,5

Boshqa turdagি xizmatlar – 29,7

Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 9,5

Tashish va saqlash – 4,7

Sog'liqni saqlash – 2,1

Axborot va aloqa – 1,5


2021- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik sub'yektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-aprel oylarida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **59,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining hissasi **84,5 %** ga to'g'ri keldi.

